

## RASSOM ESHMAMAT XAITOVNING IJOD YO'LI

**Kobilova Feruza Nasrullayevna**

“San’at tarixi va nazariyasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi

**Axatova Zohira Aktam qizi,**

San’atshunoslik va muzeysenoslik fakulteti  
san’atshunoslik yo‘nalishi, 1 bosqich talabasi.

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada Eshmamat Xaitovning hayoti, yutuqlari va o‘rganilmagan eng so‘ngi ijod namunalari haqida so‘z boradi.*

**Kalit so‘zlar:** *Eshmamat Xaitov, Qashqadaryo, Chiroqchi, Dastgohli rangtasvir, rassom, modernizm, futurizm, zamonaviy san’at.*

Insoniyatning badiiy tafakkuri go‘zal san’at namunalari yaralishi debochasi hisoblanadi. Asrlar davomida uzlusiz san’at turlarining sayqallanishi, tarixiy jihatdan boyib borishi insoniyatning go‘zallik yaratishga bo‘lgan intilishini mahsulidir. Ayniqsa san’at turlarining tasviri san’at namunalari nozik tab ijodkorlarning borliqni his qilish, o‘ziga xos dunyosi bilan qabul qilishi bilan chambarchas bog‘liq. Mintaqamiz rassomlari asarlarida mamlakatmizning boy tarixi, diniy va afsonaviy mavzulari, go‘zal tabiat, Sharqona koloritlari bilan Juhon rangtasvir ustalaridan farq qilib kelishadi. G‘arbiy Yevropa madaniyatida paydo bo‘lgan yo‘nalish va oqimlari mintaqamiz tarixi va mavjud bo‘lgan madaniyati bilan qorishib o‘ziga xos milliy rangtasvir maktabini yaratgan. Mazkur maktab davomchilaridan biri Eshmamat Xaitovdir. Eshmamat Xaitov zamonaviy o‘zbek rangtasvirida o‘z yo‘nalishiga ega serqirra ijodkordir. Rassom yaratgan rangtasvir asarlarida G‘arb va Sharq uyg‘unligini, o‘ziga xos shakl va rang ustasi ekanligini ko‘ramiz.



**Eshmamat Xaitov Haqberdiyevich**

Eshmamat Xaitov Haqberdiyevich 1973-yil 5-aprelda Qashqadaryo viloyati, Chiroqchi tumani, Qizilchora qishlog‘ida dehqon oilasida tavallud topgan. Eshmamat Xaitov bolaligidan rassomchilikka juda ishtiyoqmand bo‘lib o‘sadi. 1990-yilda Chiroqchi tumanidagi o‘rta maktabni tugatadi. 1991 va 1992 yillarda o‘z yurti oldidagi vazifasini bajarib, harbiy xizmat safarini o‘tab keladi. Harbiy xizmatni tugatib maqsadini o‘zgartirmadi, o‘zi xoxlagan, orzusidagi yo‘nalish, tomon yo‘l oldi.

1993-yildan 1996-yilga qadar Toshkent shahridagi P.P.Benkov nomli rassomlik bilim yurtida Dastgohli rangtasvir yo‘nalishida taxsil oldi. 1996-yildan Mannon Uyg‘ur nomidagi Toshkent davlat san’at institutida o‘qishni davom ettiradi.

1998-yilda institutda o‘qib yurgan kezlar “Xalq so‘zi” gazetasida “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining iqtidorli yoshlarni chet ellarda qo‘llab quvvatlash “Umid” jamg“armasi” konkursida qatnashib g‘oliblikni qo‘lga kiritadi. Mazkur grant asosida, Italayaning Komo shaxridagi Aldo Galli nomidagi “Nafis san’at Badiiy akademiyasi”ga o‘qishga yuboriladi. U yerda ham komissiya tomonidan tuzilgan imtixonlardan o‘tib o‘qishni davom ettiradi.

Uning ilk ko‘rgazmasi 2000-yilda Letsenno shaxrida “Penakoteka” ko‘rgazma zalida “O‘zbekiston rang tasviri Italiyada” nomli ko‘rgazmasi bo‘lib o‘tadi. Shu yilning o‘zida Komo shaxrida ham Aldo Galli nomidagi nafis san’at Badiiy akademiyasi ko‘rgazma zalida “Akademiya 2000” nomli ko‘rgazmasini ham o‘tqazadi.

2001-yilda Rim shaxridagi O‘zbekiston elchixonasida O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 10 yilligiga bag‘ishlangan “Mening O‘zbekistonim” nomli ko‘rgazmasini namoyishi bo‘lib o‘tadi biroz vaqt o‘tgach Komo shaxrida ham Arxeologik muzeyida “Osmon va yer uzra nomli” ko‘rgazmasi bo‘lib o‘tadi. Bu o‘tqazilgan qator ko‘rgazmalardan so‘ng “CENTRO SOCIALE 1990 COMO” ijodiy uyushmasi azosi, 2002-yilda ushbu uyushmaning “Gran-pri” mukofoti bilan taqdirlangan”<sup>1</sup>. Akademiyani imtiyozli diplom (110 E LODE) bilan tugatib, O‘zbekistonga qaytib Kamoliddin Behzot nomidagi milliy rassomchilik va dizayn institutiga o‘qituvchi lavozimida faoliyatini davom etdiradi. U hozirgi kunga qadar ushbu institutda faoliyatini davom ettirib kelmoqda.

Eshmamat Xaitov 2003-yilda Toshkentda ko‘pgina ko‘rgazmalar o‘tqazdi. Shulardan: O‘zbekiston Badiiy akademiyasining markaziy ko‘rgazma zalida “Leonardo da Vinchining 550 yilligiga bag‘ishlangan ko‘rgazmasi, shu ko‘rgazma zalining o‘zida “Assalom Navro‘z” deb nomlangan ko‘rgazmasi, ozroq vaqt o‘tgandan song “Portret va Avtoportret” nomli ko‘rgazmalar o‘tqazgani uchun 2004-yilda O‘zbekiston Badiiy ijodkorlar uyushmasi azosi bo‘lgan. Eshmamat Xaitov boshqa davlatlarga ham o‘z ijodi bilan chiqa boshladи.

<sup>1</sup>“Eshmamat Xaitov”. “SAN’AT” Jurnali. 2004.№ 1. 24-b.

2005-yilda Ozarbayjonning Boku shaxrida “Absheron” galeriyasida “O‘zbekistonning yorqin ranglari” nomli shaxsiy ko‘rgazmasini o‘tqazadi. Eshmamat Xaitov o‘tqazgan ko‘rgazmalarida namoyish qilgan kartinalarida, O‘zbekistonimizning serjilo ranglarini, tabiat go‘zalliklarini nafosat bilan ko‘rsatib bergen istedodli rassom. “Ko‘rgazmaning ochilish marosimida Ozarbayjonning yoshlar, sport va turizm vaziri Abulfaz Qoraev ikki davlat hamkorligida shunday dedi: - Mashxur rassomlar ijodi namoyish etilgan ushbu galeriyada birinchi bora yosh istedodli o‘zbek san’atkorining asarlarini ko‘rib turibmiz. Albatta, Eshmamatning yaqinda Florensiya shaxrida o‘tqazgan shaxsiy ko‘rgazmasidan so‘ng uning ijodini aynan bizning shaxrimizda ko‘rish biz uchun faxrlidir”.<sup>1</sup>

Rassom ilk ijodiy davrida realizmga ko‘proq murojaat etib manzara janrida ijod qilgan, jumladan: “Ufq” (1997), “Uloq” (1997), “O‘zbekiston tog‘lari” (1997), “Qizilchorva” (1997), “G‘azalkent” (1997), “Chavandozlar” (1998), “Ko‘lda” (1999), “Ko‘pkari” (1999), “Yoshlik bizni Uloqtirdi” (1999), “Baxor jalasi” (2001), “Oltin kuz” (2005), “Samarqand” (2008), “Tulporlar” (2010), “Kuz” (2010), “Baxor” (2010), “Tog‘da baxor” (2011), “Baxor” (2011), “Ko‘k gumbaz” (2011) kabi kartinalarini ko‘rishimiz mumkin. Rassomning manzaralari koloritga boyligi, nafis chizgilarga boyligi bilan tomoshabinlar diqqatiga tushgan. Uning deyarli barcha asarlari manzara va animalistik janrda yaratilgan. Ijodkor vaqt o‘tishi bilan zamonaviy san’at talqinida ham asarlar yaratishga qo‘l ura boshladi. Modernistik xususan, futurizm yo‘nalishida yaratgan asarlari rassomning yangi qirralarini, duyoqarashi va g‘oyalalarini ifodasi bo‘ldi. Bularga: “Kuz” (2000), “Geometrik Oyinlar” (2000), “Yoz” (2001), “Qish” (2001), “O‘tmish xotiralari” (2002), “Kuz” (2002), “Raqobat” (“Ko‘pkari” milliy oyini (2002), “Kuz” (2005) kabi asarlarini misol qilsak bo‘ladi.

Rassomning ijodidagi muhim uslubiy yo‘nalish bu XX asr g‘arb tasviriy san’at ta’siri bo‘lib, ko‘plab asarlari chuqur psixologik talqinda ishlangan. Shuni aytib o‘tish lozimki musavvir o‘z asarlarida aytib o‘tilgan G‘arbga xos uslublarni sintezlashtirgan. Shu sintez orqali o‘ziga xos bo‘lgan yangi bir talqinda ifodalagan. “Rassom o‘zining uslubi, xromatik tuyg‘usiga moyilligi bilan tanilgan va ajralib turadi”.<sup>2</sup> Ko‘plab rassomlar kabi E.Xayitov ham o‘z asarlarida ot timsoliga murojaat qilgan.

<sup>1</sup> “Ozarbayjonda O‘zbekiston yoshlari kunlari bo‘lib o‘tdi”. “Turkiston”. 27.07.2005 № 60.(14869).

<sup>2</sup> “Eshmamat Khaitov”. “La Provincia”. Venerdi, 13.07.2001.



40x30

30x40

40x30

**"Ispan chavandozlar turkum asari". (2000) Tarshon. (Akvarel)**

"Ispan chavandozlari" turkum asarida Ispaniyada bo'lgan kezлari chavandozlar mahoratidan zavqlanib yaratgan asaridir. Rassomning o'zi ot sportiga, jonivorlarning mukammal ko'rinishga, jonzotlarning xayotiga qiziqadi. Shu sababli xam ijodida ot obrazini ko'p kuzatamiz. Mazkur turkum kartinalarning chap qismida joylashgan asarda yuqori tezlik bilan ketayotgan chavandoz tasvirlangan. Kartina markazida bo'lsa ispan chavandozlarining puxtalik bilan mashg'ulotga o'rgatayotgan asov otni, o'ziga boysundirayotgan holatini chizgilarda kuchli maxorat bilan tasvirlaganligini guvohi bo'lamic. O'ng tomonidagi kartinaga keladigan bo'lsak arqon bilan otlarni ushslash holati, yani otning ustida o'tirgan holatda arqon otayotgan ispan chavandozi tasvirini ko'rishimiz mumkin. Rassom inson bilan birga yugurib ketayotgan ot holatini, jonivorning qaysarligini mahorat bilan tasvirlagan.

**E.Xaitov "Uloq". Tarshon. 40x40. (2020)**

"Uloq" kartinasida O'zbekistonning chavandozları ishtirok etadigan milliy oyinlardan biri "Uloq" ko'pkari oyinidan ilxomlanganini ko'ramiz. Uning bir qator asarlarida inson va otlarning do'stligi, ularning bir biriga bo'lgan sadoqatini oshkora tasvirlay olgan. Kartinada chapdan o'ngga yuqoridan pastga qarab dashtliklardan

yugurib, yuqori tezlik bilan harakatlanayotgan oqliqlar tasvirini ko‘ramiz. Yuqoridan pastga qarab tortilgan shtrixlar otlarning tezligini bildiradi. Qora chizgilarda tasvirlangan chavandoz va otning dinamikasini musavvir asosiy planga olib chiqqan. Orqa planda esa tog‘lar harakatlanayotgandek, gapirayotgandek tuyon urishi gavdalanadi. Rassom o‘zining bu asarida sovuq ranglardan foydalangan. Asosan aralashma texnikasida, guash, akvarelda ishlagan.



**“Oltin kuz”. Tarshon.(Akvarel) 50x60.(2021)**

“Oltin kuz” kartinasida mintaqamizning kuz faslida turli rang tuslariga kirib jilvalanishini abstrakt yo‘nalishda yaratgan. “Oltin kuz” kartinasining markazida joylashgan tasvirda O‘zbekistonimizning kuzgi serjilo manzaralari ko‘zga tashlanadi. Kartinaning markaziy qismi abstrakt ko‘rinishda ishlangan. Bu manzarani tomoshabinga yetqazib berish uchun rassom; zafaron, samoniylar, to‘tiyo, lojuvard, lolaroy, nilgun, nofarmon, to‘tigoy, qora, qizil, samoniylar kabi sovuq kolaritlardan foydalangan. Rassom o‘zining ichki dunyosini, hissiyotlarini shu kolaritlar orqali o‘z ijodida namoyon qilgan. Atrofida esa kulrang, binafsha, qora, kolaritlardan; grafikada teraklar, uylar atrofida qadimda yog‘ochdan qilingan reshokalar, tog‘lar, adirlar, dalalar tasviri tushirilgan.



**“Ayol qomati”. Tarshon. 50x60.(2021)**

“Ayol qomati” asarida ayol anatomiyasi, plastik o‘ziga xosligi naqadar go‘zal ekanligini yaqqol namoyon qilgan. Nyu janrida ishlangan bu kartinaning markazida moy boyoqda ishlangan ayolning yon tomonga qadalgan qo‘llari, uning qushday erkinligini bildiradi. Mazkur asarda rassom asosiy e’tiborni tanaga qaratgan. Yuzlari yonga burilgan ayolning xayol og‘ushida o‘tirgan holatda tasvirlangan. Rassomning bu kartinasida ham bosiq kolorit hukmronlik qiladi. Ayolning sochlarini mohirona tasvirlab nafosat, latofatni ifodalashga, romantikani yaratishga harakat qilgan. Kartinaning chap tomonida ayol kishini tik turgan holatda umumiy ko‘rinishini, o‘ng tomonda esa o‘tirgan holatida sochlarini shamol tarayotgandek taassurot qoldiradi. Rassomning zamonaviy san’at an’analari murojaati bilan birga sharqona koloritlardan voz kechmay balki, ularni birgalikda bir to‘xtamga chambarchas tarzda olib kelgan. Tomoshabinlar uning asarlarini kuzatar ekan, ularda Sharq va G‘arb an’analari sintezini guvohi bo‘ladi.

Eshmamat Xaitov zamonaviy tasviriy san’atining ilg‘or ijodkorlardan biridir. Rassom kartinalarida tasvirlayotgan obrazlarning nozik hususiyatlarini tuya olgan va nafosat bilan ifodalagan. Eshmamat Xaitov ko‘plab kartinalarida tulporlarning tasvirini turli ko‘rinishlarda namoyon etadi. Bu bilan rassom asarlaridagi g‘oyalarini tomoshabin e’tiboriga xavola etib o‘zaro hamfikrlilik shakllantiradi va shu bilan birga tomoshabinni asarning bir bo‘lagi sifatida ishtirok etishiga zamin yaratadi. Eshmamat Xaitov ijodidagi ifodaviy tasvirlar boshqa ijodkorlarnikiga nisbatan o‘ziga xos noodatiy shakllarda berilishi bilan farqlanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. “Eshmamat Xaitov”. “SAN’AT” Jurnali, Nashriyot tahrir hay’ati tomonidan yozilgan. 2004.№1.24-b.
2. “Ozarbayjonda O‘zbekiston yoshlari kunlari bo‘lib o‘tdi” “Turkiston”. 27.07.2005 № 60.(14869).
3. “Eshmamat Khaitov”. “La Provincia”. Venerdi, 13.07.2001.
4. Eshmamat Xaitov. Katolog. Istedod-2006.
5. Eshmamat Xaitov. Katolog. 11.11.2011.